



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUV DASTURIGA SIYOSATSHUNOSLIK SOHASINI INTEGRATSIYA QILISHNING ZARURIYATI

Qorjovov Soxibjon Boymurod o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy Fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi
Iff-kun-siyosat-uz-2402 guruhi. 2-bosqich talabasi
O'zbekiston Respublikasi. Toshkent shahri.

Email: qorjovovsoxib@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18796262>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-fevral 2026 yil

Ma'qullandi: 24-fevral 2026 yil

Nashr qilindi: 27-fevral 2026 yil

KEY WORDS

Siyosatshunoslik, siyosiy madaniyat, maktab darsligi, tizimli-funksional yondashuv.

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning siyosiy savodxonligini oshirish va maktab darsliklariga siyosiy fan elementlarini kiritish masalalari bayon etilgan. Tatqiqotning dolzarbligi yosh avlodda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va ularning siyosiy jarayonlarga ongli munosabatini yo'naltirish zaruriyati bilan belgilanadi. Maqolaning maqsadi – xalqaro tajribaga tayangan holda, siyosiy tushunchalarni maktab darsliklariga samarali integratsiya qilish modellarini ishlab chiqishdan iborat

O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yosh avlodni har tomonlama yetuk, faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda siyosiy savodxonlik, davlat tizimi haqidagi tushuncha va fuqarolik madaniyati muhim o'rin tutadi. Siyosatshunoslik fani maktab bosqichida alohida, mustaqil o'quv predmeti sifatida mavjud emas. Ushbu fan asosan oliy o'quv yurtlarida chuqur o'rganiladi va mutaxassislik yo'nalishlariga moslashtirilgan holda rivojlantiriladi. Biroq maktablarda siyosiy bilimlar, davlat boshqaruvi asoslari, siyosiy ong va siyosiy jarayonlarning elementlari alohida fan yuklamasini oshirmasdan, mavjud fanlar orqali uzviy tarzda beriladi. Bu integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarga nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab o'zlashtirish imkonini yaratadi. Masalan, "Tarbiya" fani, "O'zbekiston tarixi" va "Davlat huquq asoslari" kabi fanlari orqali fuqarolik madaniyati, vatanparvarlik, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, saylov jarayonlari va global siyosiy o'zgarishlar haqida tushuncha ko'rsatib o'tiladi. Bunday uslub ta'lim yukini orttirmaydi, lekin o'quvchilarda siyosiy ongni shakllantirish, milliy manfaatlarni himoya qilish qobiliyati va jamiyatdagi faol ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Siyosiy bilimlar va siyosiy xulq-atvor madaniyati kasbi, ijtimoiy mavqeyi va yoshidan qat'i nazar, har bir zamonaviy insonga zarurdir, chunki u muqarrar ravishda boshqa shaxslar, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, harakatlar va davlat bilan o'zaro aloqaga kirishadi. Siyosiy savodxonlikka ega bo'lmagan inson manipulyatsiya obyektiga, siyosiy o'yinlardagi bir vositaga aylanib qoladi. Siyosiy bilimlar, ayniqsa, adolatsizlikka o'ta ta'sirchanligi, shu bilan birga demagogik chaqiriqlarga moyilligi, mulohaza va harakatlaridagi maksimalizm hamda radikalizmi bilan ajralib turadigan yoshlar uchun nihoyatda muhimdir. Siyosiy bilimlar yoshlarda siyosiy voqeliklarni, aniq siyosiy vaziyat va harakatlarni baholash uchun zarur

bo'lgan dunyoqarash mezonlarini shakllantiradi, aniq va ravshan qadriyatli yo'nalishlarni ishlab chiqishga ko'maklashadi. Siyosatshunoslikni o'rganish shaxsning siyosiy ongini rivojlantiradi, uni davlatchilik qadriyatlariga yaqinlashtiradi, vatanparvarlikni, konstitutsiyaviy burchga sadoqatni shakllantirishga hamda harbiy xizmatning ijtimoiy ahamiyatini anglashga xizmat qiladi. Siyosiy bilim — fuqarolarning siyosiy madaniyati va siyosiy faolligining asosi bo'lib, ularsiz mamlakatimizda demokratiyani mustahkamlash, davlat va xalqning milliy manfaatlarini ta'minlash va uning progressiv rivojlanishi mumkin emas [1:3,4]." Siyosiy ta'lim shaxsni ijtimoiylashtirish va tizimli tarbiyalashning uzviy bo'lagi hisoblanib, muayyan siyosiy jamoada barqaror siyosiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon jamiyatning ijtimoiy-mafkuraviy qadriyatlari hamda siyosiy institutlarning strategik qarorlari asosida yo'naltiriladi. Siyosiy bilimlar bilan qurollanganlik jamiyatdagi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi, davlat tuzumiga bo'lgan sadoqatni shakllantiradi, milliy barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi[2:126].

Adabiyotlar tahlili.

Demokratik jamiyatda yoshlarning siyosiy sotsializatsiyasi masalasini Jon Dyui o'zining "Demokratiya va ta'lim" asarida fundamental darajada tahlil qilgan. U maktabni shunchaki bilim maskani emas, balki ijtimoiy-siyosiy tajriba maydoni deb hisoblagan [3:45]. Bernard Krik esa Britaniya ta'lim tizimiga "Fuqarolik ta'limi" (Citizenship Education) tushunchasini olib kirib, siyosiy savodxonlikni matematik savodxonlik kabi zaruriy element sifatida asoslab bergan. Uning fikricha, siyosiy bilim o'quvchini radikal g'oyalardan himoya qiluvchi intellektual filtr vazifasini o'taydi [4:112]. Braziliyalik olim Paulo Freyra "Ezilganlar pedagogikasi" asarida ta'limning siyosiy mohiyatini ochib beradi. U "bankircha ta'lim" (o'quvchini passiv saqlovchi sifatida ko'rish) modeliga qarshi chiqib, siyosiy onglikni "dunyoqarashni o'qish" deb ataydi [5:78]. Ushbu yondashuv zamonaviy axborot xurujlari sharoitida yoshlarni manipulyatsiya obyekti bo'lishdan asrash metodikasining asosi bo'lib xizmat qiladi. Rus mutafakkirlari Ivan Ilyin va Konstantin Ushinskiy qarashlarida davlat va huquqiy ongni shakllantirish vatanparvarlikning ajralmas qismi sifatida talqin etilgan. Xususan, I. Ilyin siyosiy tarbiyani shaxsning davlat oldidagi ma'naviy yetukligi sifatida baholagan [6:210]. Zamonaviy tadqiqotchi Yelena Shestopal siyosiy psixologiya nuqtayi nazaridan yoshlarning siyosiy dunyoqarashi shakllanishida maktab darsliklarining o'rnini tahlil qilgan. Uning xulosalariga ko'ra, erta yoshdagi siyosiy ta'lim shaxsda davlat institutlariga nisbatan ishonch va mas'uliyat hissini shakllantiradi [7:15]. Tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, jahon tajribasida siyosiy ta'lim — bu asosiy dalillarni tahlil qilish emas, balki shaxsning jamiyatdagi faol va himoyalangan pozitsiyasini ta'minlovchi vositadir.

Qiyosiy tahlil.

Ushbu manbalar o'rtasidagi umumiy nuqta — ta'limni siyosiy-fuqarolik tarbiyaning markaziy vositasi deb hisoblashdir. Devey va Krik integratsiyalashgan, amaliy va faol metodlarni (loyihalar, munozaralar, jamiyat bilan aloqa) ta'kidlasa, Freyra radikal o'zgarish va tanqidiy ongni talab qiladi — "Oppressiyadan" ozod bo'lish uchun ta'lim inqilobiy xususiyatga ega bo'lishi kerak. Ilyin esa ruhiy-axloqiy asosga urg'u berib, huquqiy ongni vijdon va erkinlik bilan bog'laydi, bu esa postsovet mamlakatlari (shu jumladan O'zbekiston) uchun dolzarbdir. Shestopal psixologik mexanizmlarni (sotsializatsiya bosqichlari, agentlar) ochib berib, integratsiyani real hayotiy jarayon sifatida izohlaydi.

Farqlar: G'arb mutafakkirlari (Devey, Krik) demokratik ishtirok va pragmatizmga asoslangan bo'lsa, Freyra ijtimoiy adolat va ozodlik kurashiga, Ilyin esa milliy-ruhiy qadriyatlar va huquqiy ongning ichki mustahkamligiga e'tibor qaratadi. Shestopal esa empirik-psixologik yondashuv bilan bu g'oyalarni zamonaviy kontekstda birlashtiradi.

Natijada, O'zbekiston maktablarida siyosatshunoslik elementlarini integratsiyalashda ushbu qarashlarni sintez qilish mumkin: Devey va Krikdan faol metodlar, Freyradan tanqidiy fikrlash, Ilyindan axloqiy asos, Shestopaldan psixologik samaradorlik kabi elementlardir.

Tadqiqot usuli va metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning metodologik arxitekturasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ijtimoiy-siyosiy kompetensiyalarni shakllantirishning obyektiv qonuniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, u quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlari majmuasini o'z ichiga oladi:

Tizimli-funksional yondashuv - Siyosiy bilimlarni ta'lim mazmuniga integratsiya qilish jarayoni yaxlit pedagogik tizim sifatida tadqiq etildi. Bunda ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl va metodlari o'rtasidagi funksional bog'liqliklar tahlil qilindi. Tadqiqotda aksiologik yondashuv asosida yoshlarning siyosiy qadriyatlari va davlatchilikka bo'lgan munosabatini shakllantirishning pedagogik determinantlari belgilab olindi.

Komparativistik va germenektivik tahlil - Xalqaro ta'lim standartlari (masalan, PISA va IEA tomonidan tavsiya etilgan Civic and Citizenship Education ramkalari) va milliy o'quv rejalari o'rtasidagi farqlar komparativistik tahlil orqali o'rganildi. Germanektivik metod yordamida esa amaldagi ijtimoiy-gumanitar turkumdagi darsliklar matnlarida yashirin berilgan "siyosiy ma'no"lar va ularning o'quvchi subyektivligiga ta'siri interpretatsiya qilindi. Kvalimetrik tahlil va modellashtirish o'quvchilarning siyosiy savodxonlik darajasini o'lchash maqsadida pedagogik kvalimetriya elementlaridan foydalanildi. Integratsiyalashgan ta'lim modelining samaradorligi uning prediktiv (bashoratli) funksiyasi orqali asoslandi, ya'ni berilayotgan bilimlarning o'quvchi kelajakdagi ijtimoiy faoliyati va manipulyatsiyalarga chidamliligi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar nazariy jihatdan modellashtirildi.

Natija va muhokama.

O'tkazilgan qiyosiy va germenektivik tahlillar natijasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining amaldagi o'quv dasturlarida siyosiy tushunchalarning berilishi bo'yicha bir qator muhim jihatlar aniqlandi. Tadqiqot natijalari integratsiyaning quyidagi yo'nalishlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda:

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibidagi "siyosiy bo'shliqlar" (Gaps in Curriculum) - Tahlillar shuni ko'rsatdiki, "Tarbiya" va "O'zbekiston tarixi" fanlarida davlat ramzlari va vatanparvarlikning hissiy jihatlariga keng o'rin berilgan bo'lsa-da, siyosiy institutlarning funksional ishlash mexanizmlari (masalan, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi, parlamentarizm, partiyaviy plyuralizm) yetarlicha yoritilmagan. Bu esa o'quvchilarda davlat boshqaruvi haqida faqat statik tasavvurni shakllantiradi.

Siyosiy sotsializatsiyaning bosqichli modeli (Developmental Model) -Siyosatshunoslik asoslarini integratsiya qilishda o'quvchilarning yosh kognitiv xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi bosqichli model taklif etiladi: 5-7-sinflar (Boshlang'ich ijtimoiy tushunchalar): "Jamiyat va men", "Davlat nima?", "Adolatli qarorlar qabul qilish" kabi etik-siyosiy mavzularni singdirish, 8-9-sinflar (Institutsional bilimlar): Konstitutsiyaviy tuzum, saylov huquqi va fuqarolik jamiyati institutlari haqida tizimli ma'lumotlar berish. 10-11-sinflar (Analitik tahlil va

immunitet): Geosiyosat asoslari, siyosiy manipulyatsiya texnologiyalari va soxta xabarlariga qarshi tanqidiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish.

Muhokama: Siyosiy bilim — radikalizmga qarshi profilaktika sifatida ilmiy muhokama jarayonida shunday faraz ilgari suriladiki, siyosiy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar demagogik va populistik chaqiriqlarga nisbatan kognitiv barqarorlik ko'rsatadi. Bernard Krik va Paulo Freyra nazariyalariga tayanib aytish mumkinki, siyosiy munosabatlar mohiyatini tushunish o'smirlardagi "maksimalizm"ni sog'lom siyosiy faollikka yo'naltiradi. Shuningdek, ushbu jarayonning progressiv dinamikasida siyosiy institutlar maqomini yaratish va ularning faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish davlat boshqaruvi va davlat siyosatidagi transformatsion modernizatsiya omili sifatida siyosiy aktor roliga ega hisoblanadi. Ya'ni, boshqaruv kadrlarini kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlashda maktab tizimidan olib boriladigan ta'lim turi bu vaziyatlararo sodir bo'ladigan fundamental o'zgarishlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Biroq, qonunchilik tizimida, huquq-tartibot normalarining amaliyotida va jamiyatning qadriyatli munosabatlarida siyosatga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va yaratish har qanday davlatdan muayyan resurslarni talab etadi. Bu esa, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi davlat siyosatining vektorlariga bog'liq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida siyosiy bilim va malaka darajasiga ega mutaxassis kadrlarni ishlab chiqishda oliy ta'lim muassasasidan oldin turuvchi tuzilmalarda joriy etish amaliyoti ko'pgina muayyan imkoniyatlarni ta'minlashi mumkin. 1991-yildan buyon siyosiy soha vakillarini davlatdagi faol siyosiy hodisa va vaziyatlarda harakatlanuvchi subyekt sifatidagi aniq pozitsiyasini mustahkamlash amaliyoti jamiyatdagi siyosiy madaniyat va ongning ham sezilarli darajada o'zgarishini bermoqda. Bu esa, ta'lim tizimida bir qator o'zgarsihlarni talab qiladi.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, integratsiya shunchaki yangi mavzularni qo'shish emas, balki ta'lim mazmunini axborot-psixologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqishdir.

Xulosa.

O'tkazilgan qiyosiy-germenevtik va empirik tahlillar natijalari umumiy o'rta ta'lim tizimida siyosiy kompetensiyalarni integratsiyalash jarayoni informatsion yuklama emas, balki milliy barqarorlikning kognitiv poydevori ekanligini isbotlamoqda. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning quyidagi konseptual yo'nalishlari belgilab olindi:

"Ta'lim paradigmasini transformatsiya qilish: Deskriptivlikdan pragmatizmga amaldagi o'quv dasturlarida kuzatilayotgan "metodik bo'shliqlar"ni bartaraf etish uchun siyosiy bilimlarni taqdim etish uslubini deklarativ yondashuvdan tizimli-funksional (amaliy tahliliy) modelga o'tkazish zarur." Mazkur ilmiy tadqiqot xulosida quyidagi tavsiyaviy xulosa shakllandi:

O'quvchilarda davlat instituti haqidagi tasavvurlarni "o'zgarmas va daxlsiz statik tushuncha" qolipidan chiqarib, uni fuqarolik jamiyati bilan doimiy interaksiyada bo'lgan dinamik va ochiq tizim sifatida idrok etish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Umuman olganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida siyosiy bilimlarning tizimli va bosqichma-bosqich berilishi kelajakda davlat boshqaruvida faol ishtirok eta oladigan, mas'uliyatli va tanqidiy fikrlaydigan fuqarolik jamiyati vakillarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Siyosiy tushunchalarning integratsiyasi ta'lim mazmunini shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy paradigma darajasiga ko'taradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. В.Ю. Бельского, А.И. Сацуты. Политология: научные фундаментальные понятия и политические технологии — М.: ЮНИТИ-ЛАНА. 2017. — 3-4 с.

2. Jovan B. Politics in the classroom. Conference: International Journal Scientific Papers Vol. 60.1.- Belgrade, 2023.p.126.
3. Dewey, J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. — New York: Macmillan, 1916.p.45.
4. Crick, B. Education for citizenship and the teaching of democracy in schools. Final report of the Advisory Group on Citizenship. — London: QCA, 1998. p.112
5. Фрейре, П. Педагогика угнетенных / Пер. с англ. — М.: Радикальная теория и практика, 2019.- 78 с.
6. Ильин, И. А. О сущности правосознания. — М.: Парог, 1993. – 120 с
7. Шестопад, Е. Б. Политическая психология: Учебник для вузов. — М.: Аспект Пресс, 2011 - 15 с.

